

## TURLI NUQSONLARGA EGA BOLALARNING PSIXIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA ULARNING KORREKSIYALASH YO'LLARI

**G'afforbekova Muslima Otabek qizi**

Fan va texnologiyalar universiteti 1-bosqich talabasi

[gafforbekovamuslima@gmail.com](mailto:gafforbekovamuslima@gmail.com)

**Ilmiy rahbar:** f.f.f.d, (Phd), dost. v.b., R.Rasulov

**ANNOTATSIYA:** Mazkur maqolada turli nuqsonlarga ega bolalarning psixik rivojlanishi muayyan diagnostik holatga xos aniq yoritiladi. Intellektual nuqsonlar bolalarda tushunish, xotira va muammolarni hal etish qobiliyatlarini susaytiradi. Hissiy va xulqiy buzilishlar diqqat, o'zini boshqarish va hamkasblar bilan aloqada muammolar paydo qiladi. O'qitishda inklyuziv dasturlar, maxsus ta'lim rejasi va qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhit bolalarning o'quv muvaffaqiyati va ijtimoiy integratsiyasini oshiradi. Ota-ona va oilaviy qo'llab-quvvatlash — darslarni uyda davom ettirish, hissiy barqarorlikni ta'minlash hamda terapevtik texnikalarni mustahkamlash uchun zarur.

**KIRISH.** Bugungi kunda jamiyatda har bir bola ta'lim – tarbiya olish, o'z imkoniyatlarini namoyish etish huquqiga ega. Shu sababli maxsus psedagogika fani turli nuqsonlarga ega bolalarning psixik rivojlanish xususiyatlarini chuqur o'rganish va ularning ijtimoiy hayotga moslashtirish yo'llarini ishlab chiqishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Psixik rivojlanishda og'ir bo'lgan bolalar – bu aqliy, eshitish, ko'rish, nutq, harakat yoki hissiy – emotsional sohalarda buzulish kuzatilgan shaxslar bo'lib, ularni rivojlanish jarayoni sog'lom tengdoshlariga nisbatan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu bolalarga biz yordam berishimiz kerak, ularni qo'llab – quvvatlab ular o'zlarini yolg'iz his qilmasliklari uchun yonlarida bo'lishimiz kerak.

**Asosiy qism.** Butun dunyoda bo'lgani kabi, O'zbekistonda har yili nogiron bolalar soni ko'paymoqda. 2019 yilning oxiridagi holat bo'yicha O'zbekistonda 693,9 ming nafar nogironligi bo'lgan shaxs (295,5 ming nafar ayol va 398,4 ming nafar erkak), jumladan 111,3 ming nafar 16 yoshgacha bo'lganlar (48,8 ming nafari qiz va 62,5 ming nafari o'g'il bolalar) pensiya va ijtimoiy nafaqa olgan.[1] 33 yillik mustaqillik davrida O'zbekiston inson uning hayoti, huquqlari va erkinligi ustuvor bo'lgan ijtimoiy davlat sifatida namoyon etdi. Shu sababli, nogiron bolalarning muammolari va ularning jamiyatdagi o'rni va davlatning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Zamonaviy psixologik va pedagogik adabiyotlarda bunday bolalar "rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar" va "nogiron bolalar" kabi eng keng



tarqalgan atamalar bilan tasvirlangan. "Nogiron bolalar" atamasi ostida bo'lgan shaxslar toifasi normal deb hisoblangan usulda yoki doirada faoliyatni amalga oshirish qobiliyatining cheklanganligi yoki yo'qligi bilan tavsiflanadi va shu bilan umumiy rivojlanishga salbiy ta'sir qiladi. Shunga asoslanib, nogiron bolalarning rivojlanishidagi farqlarning kengligi juda yuqori: vaqtinchalik va nisbatan oson olib tashlanadigan muammolarni boshdan kechirayotganlardan tortib, markaziy asab tizimining qaytarib bo'lmaydigan, og'ir patologiyalari bo'lgan bolalargacha. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida quyidagilarni ta'kidlagan edi: “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga etishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz — yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi “virusi” tarqalishining oldini olishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz”[2]

Prezidentning ushbu so'zlari insoniyat taraqqiyotining markazida aynan yosh avlod tarbiyasi va psixologik shakllanishi turganini ilmiy asosda tasdiqlaydi. Chunki yoshlarning salohiyatini ochish, ularni ma'naviy va psixologik jihatdan sog'lom shakllantirish — har qanday jamiyatning barqaror rivojlanish kafolatidir. Psixologiya fanining nazariy manbalarida ham shunday fikr ilgari suriladi: insonning ijtimoiy ongini shakllantiruvchi asosiy omillar — bu ta'lim, tarbiya va psixologik qo'llab-quvvatlash tizimidir. Prezidentning “zo'ravonlik g'oyasi virusi” degan iborasi esa, bugungi global muhitda yoshlar ongiga salbiy axborotlar, virtual zo'ravonlik, agressiv madaniyat ta'siriga qarshi psixologik immunitetni mustahkamlash zarurligini anglatadi. Shuningdek, bu nutqning ilmiy mazmuni shundan iboratki — har bir yoshning ijtimoiy-psixologik rivojlanishini qo'llab-quvvatlash orqali davlat inson kapitaliga sarmoya kiritadi. Bunda ijtimoiy hamkorlik, ta'lim tizimi, oila va jamoatchilikning birgalikdagi sa'y-harakatlari muhim rol o'ynaydi.

O'zbekistonda bolalarni himoya qilishga taalluqli bo'lgan o'ta muhim masalalarni hal qilish maqsadida UNICEF ko'p qirrali strategiyani olib boradi. Tegishli siyosat va qonunchilikni ishlab chiqishda texnikaviy ko'mak berish, barcha bolalar uchun xavfsiz muhitni yaratish uchun turli mutaxassislarining kasbiy mahoratini oshirish, bola himoyasi bo'yicha aholi xabardorligini oshirish shular jumlasiga kiradi.[3]



Yoshlarning barkamol shaxs sifatida kamol topishi, ularning psixologik, ijtimoiy va ma'naviy jihatdan sog'lom rivojlanishini ta'minlash — nafaqat davlat siyosati, balki millat kelajagini belgilovchi strategik yo'nalishdir. Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, farzandlarimizning qalbida ezgulik, sabr-toqat, bag'rikenglik va ijobiy tafakkurni shakllantirish — tinch va farovon jamiyat qurishning eng mustahkam poydevoridir.[4]

Bunday bolalarning muhim muammosi mavjud ijtimoiy munosabatlar tizimida hayotga psixologik tayyorgarlikdir. Bolalar dastlab moslashish va integratsiya qobiliyatining past chegarasi bilan hayotga kirishadi. Avvalo, bu boshlang'ich kasallikning turiga, rivojlanishdagi o'zgarish yoki og'ishning xususiyatiga, kasallikning namoyon bo'lishining turli xil xususiyatlariga, shuningdek ta'sirlangan organlar va organlar tizimidagi o'zgarishlarning o'ziga xos xususiyatlariga, patologiyaning tabiati va og'irligiga bog'liq.

Turli nuqsonlarga ega bolalarning psixik rivojlanishida asosan quyidagi xususiyatlar namoyon bo'ladi: Aqliy nuqsonlar intellektual rivojlanishdagi cheklovlar bunday bolalarda tafakkur, xotira, e'tibor, nutq va idrok jarayonlari sekin rivojlanadi. Ular uchun axborotni qabul qilish, tahlil qilish va umumlashtirish qiyin kechadi. Shu bois ta'lim jarayonida ko'rgazmali vositalar, amaliy mashg'ulotlar, takrorlash va rag'batlantirish muhim o'rin tutadi.[5]

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar ularning psixik rivojlanishi ayniqsa, nutq va muloqot ko'nikmalarida sustlik bilan kechadi. Eshitish signallari yetishmasligi natijasida ularning hissiy ifodalari, diqqat va xotira jarayonlari cheklangan bo'lishi mumkin. Korreksion ishlar jarayonida imo-ishora tili, eshitish apparatlari, labdan o'qish mashqlari keng qo'llaniladi.[6]

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar. Ular atrof-muhitni idrok etishda boshqa analizatorlarga — eshitish, hid bilish, sezish kabi tuyg'ularga tayanadilar. Psixik rivojlanishlari ko'proq fazoviy idrok va orientatsiya bilan bog'liq mashg'ulotlar orqali qo'llab-quvvatlanadi. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar Bu bolalarda fonematik eshituv, so'z boyligi, tafakkur jarayonlari va o'z fikrini ifoda etish qobiliyati sust bo'ladi. Logopedik mashg'ulotlar, nutqiy o'yinlar, fonetik mashqlar yordamida nutqni korreksiyalash mumkin.

Autizm spektr buzilishiga ega bolalar. Ular emotsional aloqaga kirishish, ijtimoiy muloqot va hamdardlik ko'rsatishda qiyinchilikka duch keladilar. Ularning psixik rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun individual terapiya, o'yin texnologiyalari va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiruvchi dasturlar qo'llaniladi.

Korreksiyalash yo‘llari individual yondashuv — har bir bolaning psixik holati, nuqson turi va rivojlanish darajasiga qarab shaxsiy dastur ishlab chiqish. Ko‘rgazmali o‘qitish va o‘yinli metodlar — o‘quv motivatsiyasini oshiradi va tafakkur jarayonlarini faollashtiradi. Psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash — ota-onalar bilan hamkorlikda bolaning ijtimoiy moslashuvini ta‘minlaydi. Sensor va motor mashqlar — sezgi organlari faoliyatini yaxshilash orqali idrok va xotirani kuchaytiradi. Kognitiv va emotsional treninglar — o‘z-o‘zini nazorat qilish, irodaviy sifatlar va ijobiy motivatsiyani rivojlantiradi.

**Xulosa.** Turli nuqsonlarga ega bolalarning psixik rivojlanishi murakkab, ammo to‘g‘ri tashkil etilgan korreksion-tarbiyaviy ishlar orqali ularning imkoniyatlari kengayadi, jamiyat hayotiga muvaffaqiyatli moslashishlariga erishish mumkin. Maxsus psixologiyaning asosiy vazifasi — har bir bolada shaxs sifatida rivojlanish uchun qulay psixologik sharoit yaratish va ularning ijtimoiy integratsiyasini ta‘minlashdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1 O‘zbekistonda 693,9 ming nafar nogironligi bo‘lgan shaxs ) pensiya va ijtimoiy nafaqa olgan. <https://factcheck.uz/?p=4219>
2. manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, <https://yuz.uz/uz/news/uzbekiston--baxtiyor-bolalarning-sevimli-vatani>
3. bola himoyasi bo‘yicha aholi xabardorligini oshirish shular jumlasiga kiradi. <https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/bolalar-himoyasi>
4. tinch va farovon jamiyat qurishning eng mustahkam poydevoridir. [https://constitution.uz/oz/pages/prezident\\_maruzasi\\_25yil](https://constitution.uz/oz/pages/prezident_maruzasi_25yil)
5. amaliy mashg‘ulotlar, takrorlash va rag‘batlantirish muhim o‘rin tutadi. <https://cyberleninka.ru/article/n/>
6. . Korreksion ishlar jarayonida imo-ishora tili, eshitish apparatlari, labdan o‘qish mashqlari keng qo‘llaniladi <https://kutubxona.samduuf.uz/>
7. Rasulov Rustambek Odilovich - The Essence of Political Socialization Processes and their Role in Social Development. Spanish Journal of Innovation and Integrity, ISSN: 2792-8268, Volume: 37, Dec-2024. <https://sjii.es/index.php/journal/article/view/106/150>
8. Rasulov, R. . (2024). The importance of education and upbringing in forming political socialization in the worldview of youth. Академические исследования в современной науке, 3(48), 124–132. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/arims/article/view/61938>



Research Science and  
Innovation House

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE  
RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI  
VOLUME 03, ISSUE 09, 2025. NOVEMBER

ResearchBib Impact Factor: 10.54/2024 ISSN 2992-8869



Research Science and  
Innovation House

9. Rasulov Rustambek Odilovich. The importance of youth-oriented structures established in the country in the political socialization of youth Vol. 3 No. 12 (2024): INTERNATIONAL JOURNAL OF EUROPEAN RESEARCH OUTPUT (IJERO).  
<http://ijero.co.uk/index.php/ijero/article/view/417>

10. Rasulov Rustambek Odilovich. Cultural basics of education and the role of youth in it. Philosophy And Life International Journal. ISSN 2181-9505. Doi jurnal 11.26739/2181-9505.

<https://www.tadqiqot.uz/index.php/philosophy/article/view/11321>



# Research Science and Innovation House

